

MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA PSIXOLOGIK MUHITNI YAXSHILASH

Muminova Gulmira Jurabayevna

*Farg'ona viloyati Toshloq tumani MMTB
tasarrufidagi 1-umumta'lim maktabi psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabda o'quvchilar o'rtasidagi psixologik muhitni yaxshilashning ahamiyati, unga ta'sir etuvchi omillar hamda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish yo'llari yoritilgan. O'quvchilarning o'zaro munosabatlari, muloqot madaniyati va jamoada hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning psixologik jihatlarini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar:Psixologik muhit, maktab jamoasi, o'quvchilar, muloqot, hamkorlik, ijtimoiy munosabatlar, psixologik xizmat, emotsional barqarorlik, jamoaviylik, tarbiya.

KIRISH

Maktab o'quvchilarning nafaqat bilim oladigan, balki shaxs sifatida shakllanadigan muhim ijtimoiy muhitidir. Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan maktabdagi psixologik muhitga bog'liq. Sog'lom psixologik muhit o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning o'zaro munosabatlarini mustahkamlaydi va ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlaydi.

Psixologik muhit deganda jamoa a'zolari o'rtasidagi emotsional munosabatlar, o'zaro hurmat, ishonch va hamkorlik darajasi tushuniladi. Maktabda ijobiy psixologik muhit mavjud bo'lsa, o'quvchilar o'zlarini erkin his qiladilar, fikrlarini bemalol ifoda etadilar va jamoaga tez moslashadilar. O'quvchilar o'rtasidagi nizolar, kamsitish holatlari, bir-birini tushunmaslik va muloqotdagi qiyinchiliklar psixologik muhitning salbiylashishiga olib keladi. Bunday vaziyatlarda o'quvchilarda xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik va o'qishga nisbatan qiziqishning pasayishi kuzatilishi mumkin.

Psixologik muhitni yaxshilashda sinf rahbari va fan o'qituvchilarining roli muhimdir. Ular o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat, bag'rikenglik va hamjihatlik muhitini yaratishga e'tibor qaratishlari zarur. Adolatli munosabat va har bir o'quvchining fikrini hurmat qilish jamoada ijobiy muhit shakllanishiga xizmat qiladi.

Maktab amaliyotchi psixologi tomonidan tashkil etiladigan psixologik treninglar, muloqot mashqlari va jamoaviy tadbirlar o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashda samarali vosita hisoblanadi. Bunday mashg'ulotlar orqali bolalarda hamkorlik, empatiya va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish ko'nikmalari rivojlanadi.

Ota-onalar bilan hamkorlik ham psixologik muhitni mustahkamlashda muhim omillardan biridir. Oila va maktabning uzviy hamkorligi bolalarda ijobiy xulq-atvor va sog'lom muloqot madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport musobaqalari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va ijodiy tanlovlar o'tkazish jamoada do'stona munosabatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan murakkab psixopedagogik muhitga aylanmoqda. O'quvchining ta'limdagi faolligi, ijtimoiy moslashuvi va muvaffaqiyati ko'plab omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning ichida psixologik ehtiyojlar, hissiy barqarorlik va bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiya alohida o'rin tutadi. O'quvchilar har bir darsda o'zining ruhiy holati, emotsional muvozanati, shaxsiy ehtiyojlari va ijtimoiy munosabatlari bilan ishtirok etadi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda o'quvchilarning psixologik salomatligini ta'minlash, ularning ijobiy hissiy holatini shakllantirish va o'qishga bo'lgan ichki qiziqishini qo'llab-quvvatlash muhim vazifalardan biridir. Mazkur maqolada o'quvchilarning psixologik ehtiyojlarini aniqlash va qondirish, hissiy barqarorlikni mustahkamlash hamda bilim olish motivatsiyasini rivojlantirish yo'llari xolis yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, samarali ta'lim muhiti yaratishda psixolog va pedagoglarning hamkorlikdagi roli, o'quvchilarga nisbatan individual yondashuvning ahamiyati va amaliy tavsiyalar ko'rib chiqiladi.

Ta'lim psixologiyasi sohasida o'quvchilarning psixologik ehtiyojlari, hissiy holati va motivatsiyasi yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular ta'lim samaradorligini oshirishda bu omillarning bevosita ta'sirini isbotlagan. Xususan, A. Maslou tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida psixologik ehtiyojlarning (xavfsizlik, tegishlilik, e'tirof va o'zini o'zi ro'yobga chiqarish) qondirilishi inson faoliyati va motivatsiyasida markaziy o'rin tutishi ta'kidlanadi. Ushbu nazariya ta'lim jarayonida o'quvchilarning ichki ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos sharoit yaratish zarurligini ko'rsatadi. H. G'aniyevning fikricha, o'quvchining emotsional barqarorligi darsdagi diqqat, qiziqish va bilimni idrok etish darajalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Unga ko'ra, salbiy hissiyotlar – qo'rquv, xavotir yoki befarqlik – o'quv motivatsiyasini pasaytiradi, ijobiy emotsiyalar esa bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Shuningdek, L. Vygotskiy o'zining "proksimal rivojlanish zonasi" nazariyasida ta'limning psixologik va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liqligini asoslab bergan. U o'quv faoliyati davomida o'quvchining yaqin atrofdagi ijtimoiy muhitdan oladigan hissiy-ruhiy qo'llabquvvatlashini ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi deb hisoblagan. Zamonaviy tadqiqotlarda o'quv motivatsiyasi ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanishi, ichki motivatsiyani kuchaytirish esa o'quvchining o'z-o'zini

anglash, muvaffaqiyatni his qilish, shaxsiy maqsadlarni belgilash va unga erishish istagi orqali yuzaga kelishi ko'rsatib berilgan. Mahalliy mualliflardan T. Jo'rayev, D. Jo'rayev hamda M. Karimovalarning ilmiy ishlarida o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, psixologik moslashuvi, emotsional rivojlanishi va darsdagi ruhiy holati ta'lim sifatiga qanday ta'sir qilishi keng yoritilgan. Tahlil qilingan adabiyotlar asosida ta'lim muhiti o'quvchining nafaqat bilim olish, balki psixologik rivojlanishi uchun ham muhim ma'kon ekanligi, psixologik ehtiyojlar va emotsional barqarorlik esa motivatsiyaning barqaror shakllanishiga zamin yaratishi aniqlanadi.

O'quvchilarning psixologik ehtiyojlari, hissiy barqarorligi va bilim olish motivatsiyasini aniqlash va ularni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ishlarda kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur mavzuni o'rganishda nazariy va amaliy usullar uyg'unlashtirildi. Asosiy e'tibor o'quvchilar shaxsining emotsional holati, o'quv faoliyatidagi motivatsion omillar, psixologik qulaylik darajasi va ularni rag'batlantirish mexanizmlarini aniqlashga qaratildi. Ushbu yo'nalishda ilg'or psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlil qilindi, amaliyotdagi real holatlar o'rganildi, shuningdek, sinfda kuzatishlar, suhbatlar va psixodiagnostik vositalar orqali olingan ma'lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini baholovchi mezonlar asosida ularning motivatsion darajasi, hissiy barqarorlik ko'rsatkichlari va o'zini anglash imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Jarayon davomida olingan ma'lumotlar taqqoslab baholandi, psixologik-ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liqligi aniqlashtirildi. Turli yosh guruhidagi o'quvchilarda uchraydigan psixologik ehtiyojlar, stress holatlari, emotsional reaksiya shakllari va bilimga bo'lgan munosabatlarda kuzatiladigan o'ziga xosliklar umumlashtirildi. Shuningdek, ta'lim muhitining hissiy iqlimi va o'qituvchipsixolog hamkorligining ta'siri alohida tahlil qilindi. Bu yo'nalishda tanlangan metodlar mavzuni chuqur yoritishga, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga va o'quv jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlashni samarali yo'lga qo'yishga xizmat qildi. Tanlangan usullar o'quvchilarning psixologik holatini turli holatlarda kuzatish imkonini berdi. Jumladan, dars jarayonida, guruhli mashg'ulotlarda va individual suhbatlarda o'quvchilarning hissiy javoblari, o'quv materialiga bo'lgan munosabatlari va o'z-o'zini baholash darajasi kuzatildi. Kuzatuvlar asosida shuni aniqlash mumkinki, o'quvchining ijobiy emotsional holati, psixologik qo'llab-quvvatlashga ega bo'lishi va motivatsion rag'batlarning mavjudligi uning o'quv faoliyatiga faolroq, ishonchliroq va ijodiyroq yondashishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, suhbatlar va so'rovnomalar yordamida o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari, o'qituvchilarga va ta'lim muhitiga bo'lgan munosabatlari ham tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar asosida o'quvchilarning individual psixologik ehtiyojlari, ularga mos pedagogik yondashuvlar va emotsional qo'llab-quvvatlash shakllarini belgilash imkoniyati yuzaga keldi. Mazkur yondashuv

o'qituvchi va maktab psixologlari uchun amaliy jihatdan muhim bo'lib, u o'quvchilarning individual xususiyatlariga mos motivatsion strategiyalarni tanlash, hissiy muvozanatni saqlash va o'zini anglash darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim muhitida emotsional salomatlikni saqlashga yo'naltirilgan psixoprofilaktik tadbirlar samaradorligini oshirishga asos yaratadi. Shunday qilib, o'quvchilarni bilim olishga ichki rag'batlantirish, ularning psixologik ehtiyojlariga e'tibor qaratish va hissiy barqarorlikni ta'minlash orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkinligi ishonchli asoslar bilan ko'rsatildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning shaxsiy psixologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan o'quv jarayoni ularning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hissiy barqarorlikni ta'minlovchi omillar – bu darsdagi iliq munosabatlar, ishonchli muloqot, emotsional qo'llab-quvvatlash hamda o'qituvchining individual yondashuvidir. Bunday sharoitda o'quvchi o'zini qadrlangan, tushunilgan va rag'batlantirilgan his etadi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, hissiy jihatdan qulay ta'lim muhiti mavjud bo'lgan sinflarda o'quvchilarning faolligi, ishtiroki va o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan. Aksincha, psixologik ehtiyojlari inkor etilgan, salbiy emotsional iqlim hukmron bo'lgan holatlarda esa, o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqish pasaygan, tashvishlilik va o'ziga ishonchsizlik kuchaygan. Bu esa ta'limning sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bois, maktab psixologlari va pedagoglar o'rtasida doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'quvchilarning hissiy va motivatsion holatini monitoring qilish, individual rivojlanish dinamikasini kuzatib borish muhim sanaladi. Har bir o'quvchining emotsional holatini tushunish va unga mos psixopedagogik usullarni tanlash orqali ularning shaxsiy va o'quv rivojlanishini kompleks tarzda qo'llab-quvvatlash mumkin.

O'quvchilar bilan olib borilgan kuzatuvlar, suhbatlar, psixodiagnostik vositalar va so'rovnomalar asosida olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim muhitida psixologik ehtiyojlar va hissiy holat e'tiborga olingan hollarda o'quvchilar bilim olishga nisbatan ijobiy munosabat bildiradilar. O'quvchilarning motivatsion darajasi ularning emotsional barqarorligi, psixologik qulaylik his qilishi va o'zini qadrlash darajasiga bog'liq. Ta'lim jarayonida rag'bat, ijobiy munosabat, erkin fikr bildirish imkoniyati, qo'llab-quvvatlovchi muhit mavjud bo'lgan holatlarda o'quvchilar o'zlarini ishonchli, faol va tashabbuskor tutganlari kuzatildi. Shuningdek, o'ziga nisbatan ishonch darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar mustaqil fikrlash, bilimlarni amalda qo'llash va o'z-o'zini boshqarish borasida yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, salbiy emotsional muhitda, doimiy tanqid, bosim va qo'rquv ostida bo'lgan o'quvchilarda motivatsiya pasaygan, o'zini past baholash, xavotir, diqqatni jamlay olmaslik, o'quv faoliyatidan chetlashish holatlari ko'proq uchraydi. Yaxshi tashkil etilgan psixologik qo'llab-quvvatlovchi muhit esa,

nafaqat hissiy holatni barqarorlashtiradi, balki bilim olish jarayoniga qiziqishni orttiradi. Natijalar shuni isbotladiki, motivatsiya, hissiy barqarorlik va psixologik ehtiyojlarning o'zaro uyg'unligi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi hal qiluvchi omillardandir.

Shuningdek, o'quvchilarning individual psixologik ehtiyojlariga mos keluvchi yondashuvlar va pedagogik uslublar qo'llanilganda, ularning ta'lim jarayonidagi faolligi, ijtimoiy moslashuvi va o'zini ifoda etish darajasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Bunday holatlar o'quvchilar o'rtasida sog'lom muloqot, hamkorlik, o'zaro hurmat va ijobiy psixologik iqlim shakllanishiga xizmat qilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, emotsional jihatdan barqaror, ichki rag'batga ega, o'zining qadriini anglagan o'quvchilar o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan hamda ularning shaxsiy rivojlanish dinamikasi barqaror kechgan. Aksincha, psixologik ehtiyojlari inobatga olinmagan, hissiy qo'llab-quvvatlashga ega bo'lmagan o'quvchilarda o'quv motivatsiyasi susaygan, o'ziga ishonchsizlik kuchaygan va dars jarayonida passivlik kuchaygan. Ushbu holatlarning barchasi shuni anglatadiki, ta'lim tizimida nafaqat bilim mazmuni, balki o'quvchining ruhiy holatini tushunish, hissiy-psixologik farovonligini ta'minlash ham muhim vazifa sanaladi. O'qituvchi va psixologlar tomonidan olib borilgan muvofiqlashtirilgan ishlar, individual va guruhviy maslahatlar, motivatsiyani qo'zg'atuvchi psixopedagogik texnologiyalardan foydalanish esa bu jarayonni yanada samarali tashkil etishga imkon beradi. Shu boisdan, har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning psixologik ehtiyojlariga mos yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish ta'lim sifati hamda shaxsiy yuksalishni ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabda o'quvchilar o'rtasidagi psixologik muhitni yaxshilash ta'lim-tarbiya jarayonining muhim shartlaridan biridir. O'zaro hurmat, ishonch va hamkorlikka asoslangan sog'lom psixologik muhit o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ruhiy salomatligi va o'quv faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada pedagoglar, psixologlar va ota-onalarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Psixologik ehtiyojlar qondirilmagan o'quvchilarda bilim olish motivatsiyasi susayadi va o'zini past baholash kuchayadi.
2. Hissiy barqarorlikni ta'minlagan ta'lim muhitida o'quvchilar faollik, ishonch va tashabbuskorlik bilan ajralib turadi.
3. O'quvchilarning psixologik holati va emotsional farovonligini hisobga olish ta'lim jarayonining ajralmas qismidir.
4. Ichki motivatsiyaga ega o'quvchilar o'quv faoliyatida yuqori natijalarga erishadi va o'zini anglash ko'nikmalari rivojlanadi.

5. O'qituvchi va maktab psixologi hamkorligi individual yondashuvni kuchaytiradi va stressni kamaytiradi.

6. O'quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga mos pedagogik va psixologik yondashuvlar bilim sifati va shaxsiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Takliflar:

1. Maktabda psixologik salomatlikni ta'minlash uchun o'quvchilar bilan muntazam suhbatlar va psixodiagnostik ishlar yo'lga qo'yilsin.

2. O'qituvchilar hissiy muhitni boshqarish va o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashish bo'yicha maxsus treninglarda ishtirok etsinlar.

3. Ta'lim jarayonida motivatsiyani kuchaytiruvchi interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan metodlardan keng foydalanilsin.

4. Har bir o'quvchining psixologik ehtiyojlari va emotsional holati yuzasidan individual kuzatuv kartalari joriy etilsin.

5. Ta'lim muhitida o'qituvchi-psixolog-o'quvchi hamkorligi asosida hissiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi tizim yaratilishi tavsiya etiladi.

Olingan natijalar asosida xulosa qilish mumkinki, psixologik jihatdan qulay, hissiy barqaror va motivatsiyaga boy ta'lim muhiti o'quvchilarning o'qishga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiradi, ularning o'zini anglash, bilimga intilish va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini kuchaytiradi. Shu sababli, pedagogik jarayonlar psixologik komponentlar bilan uyg'unlashtirilgan holda tashkil etilishi o'quvchining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. В.М. Оилавий ҳаёт психологияси Т.: 2006 172 бет
2. Салаева М.С. “Ўзбек оилаларида ота-она ўзаро муносабатларининг ижтимоий психологик хусусиятлари” Автореферат Т-2005
3. Файзиева М, Жабборов А “Оилавий муносабатлар психологияси” Т.: “Янги аср авлоди” 2007.
4. Halimjanovna, A. M. (2022). MANIFESTATIONS OF STRESS IN PROFESSIONAL ACTIVITY AND WAYS TO ELIMINATE IT. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 841-844.
5. АСРАНБАЕВА, М. ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ФАКТОРЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ В НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ. УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА
6. Учредители: Общество с ограниченной ответственностью Коллоквиум, 43-45.
7. Kamolova, A. (2022). The Scientific and Theoretical Foundations of Studying the Sources of Popular Pedagogy in Educating the Younger Generation. Science and Education" Scientific Journal/Impact Factor, 3, 590-592.
8. Ziyonet.com